



## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-avgust)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi va indeksi.

91,5 mird. so'm  
86,8 %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

9695,7 mlrd. so'm  
88,5 %

Ishlab chiqaradigan sanoat

388,9 mlrd. so'm  
153,3 %

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

62,2 mlrd. so'm  
93,4 %

Suv bilan ta'minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning sanoat korxonalari tomonidan 10238,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 90,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,7 % ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarishda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning fizik hajmi indeksi 53,3 % ga oshishi kuzatildi.

Aksincha, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 6,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 11,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 13,2 % ga pasayish kuzatilgan.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jamiga nisbatan ulushi, %




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 91,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 foizini tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat

Jamiga nisbatan ulushi, %

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9695,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,7 foizini tashkil etdi.







## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi,

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning hajmi 87,7 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali 1795,6 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 17,5 %), o'rta-quyi texnologiyali 1365,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 13,3 %), quyi texnologiyali tarmoq 6447,1 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 63,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarish hajmi  
(mlrd. so'm)



Ishlab chiqarishdagi ulushi  
(foizda)



 yuqori texnologiyali  
 o'rta-yuqori texnologiyali

 o'rta-quyi texnologiyali  
 quyi texnologiyali



## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-avgust oylari davomida, ishlab chiqaradigan sanoatda 251,2 ming tonna chaqiq tosh (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 42,4 % ga o'sgan), 93,6 ming tonna po'latdan quvurlar (2,7 martaga), 253,9 ming tonna asfalt (36,3 %ga), 13694,3 tonna yigirilgan ip (2,6 martaga oshgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari        | 2019- yil yanvar-avgust | 2020- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|----------------------------|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Chaqiq tosh, ming t.       | 176,3                   | 251,2                   | 74,9      |
| Po'latdan quvurlar ming t. | 34,2                    | 93,6                    | 59,4      |
| Tamaki (sigaret), mln.dona | 6332,0                  | 6125,0                  | -207      |
| Asfalt, ming t.            | 186,3                   | 253,9                   | 67,6      |
| Yigirilgan ip, t           | 5208,9                  | 13694,3                 | 8485,4    |

| Sanoat mahsulotlari                                 | 2019- yil<br>yanvar-avgust | 2020- yil<br>yanvar-avgust | Farqi<br>+/- |
|---|----------------------------|----------------------------|--------------|
| Xo'jalik sovuni, t                                  | 4010,0                     | 3420,0                     | -590,0       |
| Mineral va kimyoviy o'g'itlar<br>chiqarish, ming t. | 46,7                       | 14,2                       | -32,5        |
| Paxta tolasi, ming t.                               | 14,6                       | 24,1                       | 9,5          |
| O'simlik yog'i, t                                   | 6877,0                     | 6142,1                     | -734,9       |



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish

(yirik korxonalar bo'yicha)



Tarkibida azot va  
fosfor bo'lgan  
mineral yoki  
kimyoviy o'g'itlar

**3,52**  
*ming tonna*

Aroq

**167,0**  
*ming l. 100% spirit*

Xo'jalik sovuni

**3420,0**  
*tonna*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab  
chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)



Uzum vinosi

1178,9  
*ming l.*

Pivo (pivo ishlab  
chiqarish  
chiqindilardan  
tashqari)

24588,0  
*ming l.*

Yumshoq bug'doy va  
spelta uni

118,0  
*ming tonna.*

Birinchi navli undan  
tayyorlangan bug'doy  
noni (buxanka), og'irligi  
600 g.

473,0  
*tonna*

Tozalangan paxta yog'i  
va uning fraksiyalari  
(kimyoviy modifikatsiya  
qilinganlaridan tashqari)

8363,7  
*tonna*



Paxta tolasi

24,1  
*ming tonna*



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta chigit



Paxta tiviti (lint)



Yigirilgan ip

39,9  
ming tonna

1505,5  
tonna

13694,3  
tonna



Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi

57,2  
mln kBt.s



Bug' va issiqlik suv  
(issiqlik energiyasi)

50,3  
ming Gkal.



Portlandsement

58192,2  
tonna



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Po'latdan quvurlar



Asfalt



Chaqiq tosh

93,6  
ming tonna

253,9  
ming tonna

251,2  
ming tonna



Tamaki (sigaret)



Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa




Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish

6125,0  
mln. dona

79,4  
ming tonna

14,2  
ming tonna

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash***Jamiga nisbatan ulushi, %*

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 388,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 foizini) tashkil etdi.


2020- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash tarmoqlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 53,3 % ga oshganligi kuzatildi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Jamiga nisbatan ulushi, % da

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 62,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizini) tashkil etdi.




## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,6 % ga pasayganligi kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6559,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,5 % ga oshganligi hamda jami sanoatdagi ulushi 64,1 % ni tashkil etganligi kuzatildi.



2019- yilning mos davriga solishtirilganda, 2020- yil yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,1 % dan 61,9 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat ishlab chiqarish tarkibida vino, aroq va pivo mahsulotlari 4,6 % (2019- yil yanvar-avgust oylarida 4,7 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 43,5 % ni, shuningdek, Urgut tumani 13,1 % ni, Samarqand tumani 8,5 % ni, Jomboy tumani 6,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o'sish sur'ati (100,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Oqdaryo (191,7 %), Payariq (183,4 %), Pastdarg'om (157,1 %), Ishtixon (154,7 %), Jomboy (117,0 %) hamda Narpay (114,3 %), tumanlarida qayd etildi.



#### **Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ulushi va o'sish sur'ati (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

|                                | Mlrd. so'm | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da |
|--------------------------------|------------|------------------------------|---|
| Samarqand viloyati             | 6559,0     | 100,0                        | 100,5   |
| Samarqand sh.                  | 2854,8     | 43,5                         | 97,0  |
| Kattaqo'rg'on sh.<br>tumanlar: | 108,8      | 1,7                          | 81,8  |
| Samarqand                      | 555,1      | 8,5                          | 79,0  |
| Ishtixon                       | 158,9      | 2,4                          | 154,7   |

|               |       |      |       |
|---------------|-------|------|-------|
| Pastdarg'om   | 290,4 | 4,4  | 157,1 |
| Payariq       | 123,0 | 1,9  | 183,4 |
| Urgut         | 860,5 | 13,1 | 96,4  |
| Toyloq        | 370,2 | 5,6  | 98,4  |
| Oqdaryo       | 154,5 | 2,4  | 191,1 |
| Jomboy        | 437,6 | 6,7  | 117,0 |
| Narpay        | 182,1 | 2,8  | 114,3 |
| Bulung'ur     | 134,3 | 2,0  | 67,4  |
| Kattaqo'rg'on | 119,7 | 1,8  | 89,0  |
| Nurobod       | 129,1 | 2,0  | 123,7 |
| Paxtachi      | 64,2  | 1,0  | 105,5 |
| Qo'shrabot    | 15,8  | 0,2  | 107,8 |



### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3863,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 37,7 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi

|                    | 2020- yil<br>yanvar-avgust<br>mlrd. so'm | Fizik hajm<br>indeksi, % da |
|--------------------|--|-----------------------------|
| Samarqand viloyati | 10238,3                                  | 90,5                        |
| Samarqand sh.      | 4757,8                                   | 94,4                        |
| Kattaqo'rg'on sh.  | 178,0                                    | 99,6                        |
| <i>tumanlar:</i>   |  |                             |
| Samarqand          | 830,6                                    | 86,2                        |
| Ishtixon           | 217,5                                    | 137,6                       |
| Pastdarg'om        | 366,1                                    | 105,0                       |
| Payariq            | 209,7                                    | 107,9                       |
| Urgut              | 880,1                                    | 85,7                        |
| Toyloq             | 365,2                                    | 95,2                        |
| Oqdaryo            | 194,6                                    | 117,1                       |
| Jomboy             | 1205,1                                   | 71,7                        |
| Narpay             | 328,3                                    | 118,3                       |
| Bulung'ur          | 173,1                                    | 71,9                        |
| Kattaqo'rg'on      | 202,9                                    | 102,9                       |
| Nurobod            | 126,2                                    | 107,1                       |
| Paxtachi           | 178,3                                    | 109,1                       |
| Qo'shrabot         | 24,9                                     | 92,7                        |



## Sanoat ishlab chiqarish hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyatning sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Samarqand shahrida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 47,5 %), Jomboy (11,7 %), Urgut (8,2 %), Samarqand (7,4 %), Pastdarg'om (3,9 %) Toyloq (3,5 %), Narpay (3,1 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Qo'shrabot (0,2 %), Nurobod (1,2 %) hamda Bulung'ur (1,4%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi (2020- yil yanvar-avgust oylarida)


|                    | Mahsulot hajmi<br>(mlrd. so'm) | Jamiga nisbatan<br>ulushi % da |
|--------------------|--------------------------------|--------------------------------|
| Samarqand viloyati | 4303,9                         | 42,0                           |
| Samarqand sh.      | 1 334,5                        | 28,0                           |
| Kattaqo'rg'on sh.  | 59,1                           | 33,2                           |
| tumanlar:          |                                |                                |

|               | Mahsulot hajmi<br>(mlrd. soʻm) | Jamiga nisbatan<br>ulushi % da |
|---------------|--------------------------------|--------------------------------|
| Samarqand     | 556,3                          | 67,0                           |
| Ishtixon      | 61,4                           | 28,2                           |
| Pastdargʼom   | 232,2                          | 63,4                           |
| Payariq       | 209,1                          | 99,7                           |
| Urgut         | 682,5                          | 77,6                           |
| Toyloq        | 110,7                          | 30,3                           |
| Oqdaryo       | 100,6                          | 51,7                           |
| Jomboy        | 280,3                          | 23,3                           |
| Narpay        | 41,8                           | 12,7                           |
| Bulungʼur     | 132,8                          | 76,7                           |
| Kattaqoʻrgʼon | 192,1                          | 94,7                           |
| Nurobod       | 113,2                          | 89,7                           |
| Paxtachi      | 159,4                          | 89,4                           |
| Qoʼshrabot    | 19,6                           | 79,0                           |



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznes  
subyektlari ulushi, % da**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4399,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, umumiy ishlab chiqarish hajmi-dagi ulushi 43,0 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qo'shrabot, Oqdaryo, Nurobod, hamda Bulung'ur (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %) ni, Paxtachida (90,6 %), Urgut (81,6%), Samarqand (74,9 %), Pastdarg'om (66,3 %) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'ssatdiki, Kattaqo'rg'on shahri (31,7 %), Samarqand shahri (27,5 %), Ishtixon (25,6 %), Narpay (7,8 %) tumanlarida kichik biznes subyektlari ulushining kamligi kuzatilgan, ushbu holatni mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




### Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6581 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 1513 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligining 23,0 %) Samarqand shahriga, 951 tasi (14,5 %) Urgut tumaniga, 607 tasi (9,2 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Hududlar kesimidayangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**



2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha 1087 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 153 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalaridagi ulushi 14,1 %) Samarqand shahrida, 142 tasi (13,1 %) Urgut tumanida, 107 tasi (9,8 %) Samarqand tumanida, 104 tasi (9,6 %) Pastdarg'om tumanida tashkil etilgan.

Sanoat statistikasi bo'limi  
Tel: (66) 235-06-80